

2019 yil yanvar-may oylarida Namangan viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

RAQAMLAR:

- ☐ Sanoat ishlab chiqarish hajmi **3017,0 mlrd.so'mni**, sanoat ishlab chiqarish indeksi **108,3 %ni** tashkil etdi
- ☐ Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning hajmi **1891,6 mlrd.so'mni** o'sish sur'ati **110,2 %**
- ☐ Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi - **62,7 %**
- ☐ Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **68,6 %**

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2019 yilning yanvar-may oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 3017,0 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 108,3 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida ishlab chiqarish hajmi indeksi 109,2 % ga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 92,7 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 94,7 % ga o'sishi hisoblanadi.

2019 yil yanvar-may oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 9,0 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,3 % ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).

2019 yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2844,8 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 94,3 % ni tashkil etdi.

2019 yil yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

	2019 yil	2018 yil	2018 yilga nisbatan, %
O'simlik yog'i (tozalanmagan), ming tonna	7,4	8,6	86,0
Paxta linti, ming tonna	1,5	1,7	88,2
Aroq – ming litr 100 % spirt	166,8	452,6	36,9
Vino, ming litr	29,2	62,3	46,9
Un, ming tonna	50,9	48,2	105,6
O'simlik yog'i (tozalangan), ming tonna	6,2	6,8	91,2



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondititsiyalash.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondititsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 134,1 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 4,4 % ni) tashkil etdi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 29,1 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,0 % ni) tashkil etdi.



Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 1891,6 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2018 yilning yanvar-may oyiga nisbatan 10,2 % ga ko'paygan, jami sanoatdagi ulushi esa 62,7 % ni tashkil etdi.


2019 yilning yanvar-may oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari



davomi

2018 yilning yanvar-may oyiga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 30,8 % dan 2019 yilning yanvar-may oyida 33,3 % ga ortgan.

Yanvar-may oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, % da





2018 yilning yanvar-may oyiga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 69,2 % dan 2019 yilning yanvar-may oyida 66,7 % bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan kamaygani kuzatilmoqda.



Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan mahsulotlarining ishlab chiqarilishi

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 698,9 mlrd.so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.

Qo'shma korxonalarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi hisobot davrida bu ko'rsatkich 23,2% ni tashkil etdi.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining sanoatning umumiy hajmidagi ulushi,%.



-  Viloyatning boshqa korxonalari
-  Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar

Qo'shma korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning umumiy hajmida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari ulushi 100,0 % ni tashkil etdi.


Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, %



Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.

Viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Namangan shahar (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 42,6 % ulushini), Namangan (11,3 %), To'raqo'rg'on (10,1 %), Uchqo'rg'on (9,8 %), Uyehi tumani (6,7 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**2019 yilning yanvar-may oylarida hududlarning
jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da**



Shu bilan birga eng kam ulush Yangiqo'rg'on (1,2 %), Chortoq (1,3 %), Norin (2,1 %) , Mingbuloq (3,0 %) va Kosonsoy (3,5 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

Shuningdek, iste'mol mollari hajmining eng katta qismi Namangan shahar (jami iste'mol tovarlari hajmida 46,6 %), Namangan (10,4 %), Uchqo'rg'on (9,3 %) hamda To'raqo'rg'on (8,2 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

Raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha yuqori texnologiyali loyihalarni amalga oshirish natijasida Mingbuloq , Pop va Namangan tumanlarida sezilarli darajada ishlab chiqarish hajmining oshishi ta'minlandi.


2019 yilning yanvar-may oylarida hududlarda sanoat ishlab chiqarish hajmi



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tabaqalanishi tahlili Namangan shahrida (2095,4 ming so'm), Namangan tumanida (1936,5 ming so'm), Uchqo'rg'on (1761,2 ming so'm) va To'raqo'rg'on (1380,1 ming so'm) tumanlarida o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (1093,9 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishi 685,9 ming so'm bo'lgani holda Namangan shahrida 1441,3 ming so'mni, Uchqo'rg'on tumanida 1041,4 ming so'mni, Namangan tumanida 1132,9 ming so'mni, To'raqo'rg'on tumanida 700,2 ming so'mni tashkil etdi.


2019 yil yanvar-may oylarida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat ishlab chiqarish va iste'mol tovarlari xajmlari



Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish xajmi 2069,3 mlrd.so'mni va o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 68,6 % tashkil etmoqda.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Yangiqo'rg'on (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Chortoq (100,0 %), Kosonsoy (100,0 %), Namangan (85,9 %) va Uychi (81,8) tumanlarida kuzatildi. Shu bilan birga, eng kichkina ulush Mingbuloq (18,0 %), Pop (30,5 %) va Chust (50,5 %) tumanlarida kuzatildi.


2019 yilning yanvar-may oylarida hududlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda ulushi, % da



Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari.


Bugungi kunda viloyatda 5145 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 2256 tasi Namangan shahrida, 378 tasi Chust, 377 tasi Uychi, 356 tasi Namangan, 329 tasi Kosonsoy, 307 tasi To'raqo'rg'on, 229 tasi Uchqo'rg'on, 215 tasi Norin, 208 tasi Yangiqo'rg'on, 191 tasi Chortoq, 190 tasi Pop va 109 tasi Mingbuloq tumanida joylashgan.

2019 yil 1 iyun holatiga faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni



2019 yilning yanvar-may oylarida viloyatda 896 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etilgan bo'lib, ulardan 56,0 % Namangan shahri, Kosonsoy, Uchqo'rg'on va Norin tumanlariga to'g'ri keladi.

**2019 yil 1 iyun holatiga yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni
(birlikda)**



**Namangan viloyat statistika boshqarmasining
Sanoat statistikasi bo'limi**

Nashr uchun mas'ul:

E.Jalilov

Aloqa telefoni:

(0371) 230-84-80